

*Radjabova Madinabonu Raimovna  
Samargand davlat chet tillar instituti talabasi*

## XITOIY TILI GRAMMATIKASIDA ORTTIRMA NISBAT 兼语句 (JIĀN YŪJÙ)

**Annotatsiya:** Xitoy tilidagi orttirma nisbat 兼语句 (Jiān yǔjù) strukturasi o'ziga xos xususiyatlari va grammatik rollarini o'rganish, tilshunoslik va o'quv jarayonlarida muhim ahamiyatga ega. Ushbu turdagi jumlar ikki yoki undan ortiq sub'ektni birlashtiradi, natijada bir vaqtning o'zida bir nechta harakat yoki holatni ifodalash imkoniyatini beradi. Bunday jumlar odatda birinchi harakatni ikkinchi harakat bilan bog'laydigan o'zaro bog'lovchi yoki ravishlar orqali quriladi. Ortirma nisbatli jumlar, asosan, muloqotda qisqalik va aniq ifodalanishni ta'minlaydi, shuningdek, ularning ko'p qirraliligi, stilistik jihatdan ham foydali hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** 兼语句 (Jiān yǔjù), 请 qǐng, 让 ràng, 叫 jiào, 使 shǐ, 令 lìng, 派 pài, 连动句.

### Kirish

Orttirma nisbat shakllari 兼语句 hamda bog'langan gaplar 连动句 xitoy tili grammatikasidagi maxsus jumla shakli hisoblanib, orttirma nisbat so'zlar asosiy fe'l ma'nosini yasashga hizmat qilsa, bog'langan gaplarni tuzishda esa undan oldingi va undan keying ikki haraktning joylashuv tartibiga e'tibor qaratish lozim.

### Adabiyotlar tahlili va metod.

兼语句 orttirma nisbatli gap – fe'l-to'ldiruvchi tuzilishi va to'ldiruvchi-predikat tuzilmasi bilan tuzilgan gap shaklidir. Jumladagi eng muhim narsa - buyruq ma'nosiga ega bo'lgan fe'lga ega bo'lishdir. Xitoy tilida eng ko'p shu ma'noda ishlatiladigan so'zlar "请, 让, 叫, 使, 令, 派", ular orasida "请, 让, 叫" og'zaki tilda ishlatiladi, "使, 令, 派" esa rasmiyroq hisoblanadi. "有" va "给" ham alohida holatlarda bir vaqtning o'zida jumla hosil qilishi mumkin. Jumlaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, gapdagi birinchi fe'l o'zidan keyin to'ldiruvchini ko'chirishi mumkin, gapda pauza bo'lmaydi.

#### 1. 请/让/叫+名/代+宾

Bu formula orttirma nisbatli gap shakli hisobladi. Oldin orttirma so'zlar undan keyin ot yoki olmosh va oxirida to'ldiruvchi. 请 hushmuomilalik bilan gapirayotganimizda, taklif qilish, iltimos qilish degan ma'nolarda qo'llashimiz mumkin. 让 buyruq berish ma'nosini bildirib, ota-ona, o'qituvchi yoki bizdan yoshi katta bo'lgan insonlar qo'llashi mumkin. 叫 ni xohlagan ko'rinishda qo'llashimiz mumkin, u chaqirmoq degan ma'noni bildiradi. Do'stlar orasida ko'proq qo'llaniladi.

今天我要请朋友吃饭。Bugun men do'stlarimni kechki ovqatga taklif qilaman.

老师请我们去他家做客。Ustoz bizni uyiga mehmonga taklif qildi.

朋友请我一起去看电影。Do'stim meni birga film tomosha qilishni taklif qildi.

老师让学生回答问题。O'qituvchi talabalardan savollarga javob berishlarini so'radi.

爸爸让我早点回国。Dadam uyga erta qaytishimni aytdi.

老板让你们在这儿等他一会儿。Rahbar sizni bir muddat shu yerda kutishingizni so'raydi.

你哥哥叫你快回家。Ukangiz uyingizga tez qaytishingizni aytdi.

他不叫你跟他一起去。U sizdan u bilan borishingizni so'ramadi.

你叫我干什么? Mendan nima qilishni so'rading?

#### 2. 使/令/派+名/代+动+宾

Bu uch fe'lning egasi asosan odamlar bo'ladi, lekin "使" va "令" so'zlari qatnashgan gapning egasi narsalar ham bo'lishi mumkin. "派"ning egasi ko'pincha "mamlakat 国家, maktab 学校, kompaniya 公司, bo'linma 单位, rahbariyat 领导" va hokazo bo'lib, to'ldiruvchi bilan ma'lum bir yuqori-bo'ysunuvchi munosabatni hosil qiladi. Nisbatan qat'iy belgilangan "令" so'ziga e'tibor bering - "令人" "AB", masalan, "令人高兴 odamni xursand qildiradi, 令人兴奋 odamni hayajonlantiradi, 令人失望 odamni umidsizlantiradi, 令人气愤 odamni g'azablantiradi...."

这件事使我明白了一个道理。Bu voqea menga bir narsani tushunib yetqazdi.

这本书使我了解了中国。Bu kitob menga Xitoyni tushunishga yordam berdi.

你使我很失望。Sen meni umidsizlantirding.

改革开放使我们大家都富裕起来了。Islohot va ochiqlik barchamizni boy qildi.

这件事真令人生气。Bu narsa juda g'azablantirdi.

这次事故令很多人无家可归。Baxtsiz hodisa ko'plab odamlarni boshpanasiz qoldirdi.

他那样做真令人失望。Uning shunday qilgani hafsalasini pir qildi.

公司派他来学习。Kompaniya uni o'qishga yubordi.

学校派他去法国工作。Kolledj uni Frantsiyaga ishlashga yubordi.

到底是谁派你来这儿的？Oxiri seni bu yerga kim yubordi？

3. 有+宾+动+宾

“有” so‘zidan tuzilgan qo‘shma gaplar, asosan, og‘zaki nutqda ishlatiladi. “有”dan oldin ega ishlatilishi yoki ishlatilmasligi ham mumkin.

外边有人找你。Tashqarida kimdir sizni qidirayпти. (Bu gapda aniq kim ekanligini bilmaymiz )

他有个哥哥读大学。Uning universitetda o‘qiydigan akasi bor.

有个学校要请汉语老师。Xitoy tili o‘qituvchisini ishga olmoqchi bo‘lgan maktab bor.

有只鸟飞走了。Bir qush uchib ketdi.

我有位学生叫马兰。Mening Ma Lan ismli talabam bor.

4. 动+名+给+宾+动

给 qo‘shma to‘liqllovchi bilan ham keloladi, masalan, “给你书 kitobingni ol, 给我磁带 menga magnit lentani ber” kabi. Lekin o‘zgarish sodir bo‘lgandan so‘ng, 给 ning bilvosita to‘ldiruvchisi orttirma nisbatga aylanadi.

买书给你看。Men sizga o‘qish uchun kitob sotib olaman.

唱歌给你听。Kuylangan qo‘shiqni tinglang.

做饭给孩子们吃。Bolalar uchun ovqat pishiring.

说谜语给你猜。Men senga bir topishmoq aytaman, sen esa top.

我们要修条路给大家走。Biz hamma yurishi uchun yo‘llar qurishimiz kerak.

### Xulosa

Xitoy tilidagi orttirma nisbat 兼语句 (Jiān yǔjù) grammatikasi, tilning boyligi va murakkabligini aks ettiradi. Ushbu jumlarlar bir vaqtning o‘zida bir nechta harakat yoki holatlarni ifodalashga imkon berib, muloqotni aniq va qisqa qilishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘rganish jarayonida, Jiān yǔjù larni to‘g‘ri qo‘llash, tilni samarali ishlatish va tushunishni yaxshilashga yordam beradi. Biroq, bu jumlarlarni shakllantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va sintaktik xatolarni aniqlash va bartaraf etish, xitoy tilini o‘rganayotganlar uchun muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda, Jiān yǔjù larning chuqur o‘rganilishi, tilshunoslikda va amaliy muloqotda yanada samarali natijalarga erishish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A practical chinese grammar for foreigners (revised edition) -北京:北京语言大学出版社, 2008, (652 pages)
2. Jiang Liping. Standart course HSK3 -北京:北京语言大学出版社, 2009, (190 pages).
3. Суй Цзиннин; [пер. с кит. К.В. Агеева]. — Москва: Издательство АСТ, 2021. — 480 с. — (Школа китайского языка).



4. Тихонова Е.В., Привороцкая Т.В., Тагина Е.К. [и др.]. Комплемент в китайском языке. Томск: Издат. дом Томск. гос.ун-та, 2015
5. Zhu Qingming, Modern Chinese Practical Grammar Analysis Second Edition Part 1, Tsinghua University Press, (246 pages).